

Ortiqov Ulug'bek Akrombek o'g'li*Toshkent moliya instituti O'qtuvchisi***Muzaffarov Muhammadjon Maximud o'g'li***O'qtuvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada eksport-import jaraenida soliq nazoratiga ta'sir qiluvchi omillar shu bilan birgalikda kelgusi makroiqtisodiy holatning asosiy omillari, yalpi ichki mahsulotning 2022-2024 yillarga maqsadli mo'ljallari, asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi o'r ganilgan. Shuningdek, eksport-import jaraenida soliq nazoratiga ta'sir qiluvchi omillarini o'rganishga doir ilmiy munozaralar yuritilgan va takliflar berilgan.*

Kalit co'zlar: *eksport, import, savdo operatsiyasi, iqtisodiy o'sish tashqi savdo, soliq xizmati, banklar, bojxona, maqroiqtisodiy ko'rsatkichlar, soliq, valyuta, soliq nazorati, investitsiya.*

PROCEDURE FOR MONITORING TAX CONTROL IN EXPORT- IMPORT OPERATIONS

Abstract: *In this article, the factors affecting tax control in the export-import process, as well as the main factors of the future macroeconomic situation, the targets of the gross domestic product for 2022-2024, and the forecast of the main macroeconomic indicators were studied. Also scientific discussions related to the factors affecting tax control in the export-import process were conducted and proposals were made.*

Key words: *export, import, trade operation, economic growth, foreign trade, tax service, banks, customs, macroeconomic indicators, tax, currency, tax control, investment.*

KIRISH

O'zbekistonda iqtisodiètni soliqlar vositasida tartibga solish, tadbirkorlik sub'ektlarini faoliyatini soliqlar vositasida qo'shimcha rag'batlantirish, soliq qonunchilagini birinchi marotaba bilmasdan buzaètgan tadbirkorlik sub'ektlariga nisbatan moliyaviy jazo choralarini qo'llamaslik bo'yicha tizimli amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. «Soliq nazoratining shakl va mexanizmlarini, shu jumladan soliq solish ob'ektlari hamda soliq to'lovchilarni yanada to'liq qamrab olish va hisobini ta'minlaydigan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hisobiga takomillashtirish, transfer narxlarni shakllantirish bilan bog'liq operatsiyalarga soliq solish tartibini joriy etish»[1] vazifasi belgilangan. Mazkur vazifa ijrosini ta'minlashda eksport faoliyatini yanada rivojlantirish, tadbirkorlar o'rtasida raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishni kengaytirishda moliyaviy imtièzlarni qo'llash tartibini takomillashtirish, tashqi savdoda soliq nazoratiga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish bo'yicha taklif va ilmiy tavsiyalarni asoslash, xalqaro bozorda


mamlakat tashqi savdoda soliq nazoratiga ta'sir qiluvchi omillarini soddalashtirish masalalari dolzARB muammolardan biridir.

Tahlil va natijalar

Dunèning Xitoy, Rossiya, Turkiya, Janubiy Koreya, Germaniya, Qozog'iston Respublikasi O'zbekistonning import bo'yicha hamkor davlatlaridan hisoblanadi. Maxsulot importining o'sishi valyuta kursining oshishiga va inflyatsini oshishiga olib keladi. Bu esa bojxonada undiriladigan soliqlarning yig'iluvchanligiga ta'sir ko'rsatadi. Chunki, bojxona to'lovlarini hisoblashda, tovarlarning bojxona qiymatini aniqlash, aksiz va qo'shilgan qiymat soliqlari xorijiy valyutada hisoblanadi. Keyin esa bojxona to'lovlarini hisob-kitob yuritilishida hammasi milliy valyuta ekvivaletiga aylantiriladi.

Jahon iqtisodiètining rivojlanishida va iqtisodiy ko'rsatkichlarning samadorligini ta'minlashda makroiqtisodiy holat alohida ahamiyat kasb etadi.


O'zbekiston iqtisodiètining o'sish sur'atini ta'minlovchi omillar 1-rasm bilan izohlanadi.



1-rasm. Kelgusi makroiqtisodiy holatning asosiy omillari [14]

Barqaror iqtisodiy o'sishda sanoatning qayta ishlab chiqarish tarmoqlarining tezda rivojlanishi bo'lib hisoblanadi. Ushbu holat o'z navbatida, iqtisodiètning boshqa tarmoqlarini sanoatlashtirishda mehnat unumdarligini oshishida alohida ahamiyat kasb etadi.

Barqaror iqtisodiy o'sish iqtisodiy sièsatning maqsadi sifatida ham e'tirof etiladi. Bu vazifani bajarishda fiskal sièsat muhim ahamiyatga ega.




2-rasm. Yalpi ichki mahsulotning 2022-2024 yillarga maqsadli mo'ljallari (mlrd so'mda) [14]

Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan biri bo'lgan yalpi ichki mahsulotning yildan-yilga maqsadli mo'ljallari o'sishi rejalahtirilgan.

2023 yilning o'zida ushbu ko'rsatkich 2022 yilga nisbatan 0,13 foizga oshirishni, 2024-yilda esa 2022-yilga nisbatan 0,25 foizga oshirish nazarda tutilgan.

Qolgan maqroiqtisodiy ko'rsatkichlar 2022-2024 yillar uchun asosiy maqsadli mo'ljallari o'z ichiga yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'ati, iste'mol narxlar indeksi, sanoat mahsulotlarining o'sish sur'ati, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklarida ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, chakana tovar aylanmasining foizlarda o'sish sur'atlarini o'z ichiga olgan.



3-rasm. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi (foizda) [15]

Ushbu ko'rsatkichlarning iste'mol narxlar indeksidan tashqari qolgan barcha ko'rsatkichlarning 2024-yilgacha maqsadli oshirib borish mo'llangan.

O'z navbatida asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning shunday maqsadli mo'ljallari tashqi savdo faoliyati bilan bevosa bog'liq bo'lib hisoblanadi.

Raqamli iqtisodièt sharoitida umuman iqtisodiètni, xususan tashqi savdoni davlat tomonidan boshqarish shakllarining biri soliq nazorati bo'lib hisoblanadi. Mamlakatdagi tashqi savdo faoliyatida soliq nazoratiga quyidagi iqtisodiy omillar ta'sir ko'rsatmoqda:

1. Ishlab chiqargan tovarlarini eksport qilgan tadbirkorlar uchun soliq to'lovlaridan yaratilgan imtièzlardan qonunga xilof ravishda imkon qadar ko'proq foyda olishga bo'lgan urinishlar.

2. O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tgan tadbikorlar xorijiy davlatlarga ko'proq tovar eksport qilganligi uchun soliq to'lovlarini to'lamaslik èki kamroq to'lash uchun eksport qilaётган tovarlarini narxini amaldagi real narxdan oshirib, bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazib, chet davlatlarga olib chiqmoqda.

3. O'zbekiston Respublikasiga investitsiya mablag'larini kiritgan xorijiy davlatlarning tadbirkorlari uchun O'zbekistonda soliq to'lovlaridan ozod qilish bo'yicha beriladigan imtièzlardan foydalanishga bo'lgan urinishlar.

4. Tadbirkorlar tomonidan tovarlarning narxini sun'iy ravishda oshirib ko'rsatish orqali eksport qilishi

4-rasm. Eksport-import operatsiyalarida soliq nazoratini olib borishda ta'sir qiluvchi omillar [16]

1. Ishlab chiqargan tovarlarini eksport qilgan tadbirkorlar uchun soliq to'lovlaridan yaratilgan imtièzlardan qonunga xilof ravishda imkon qadar ko'proq foyda olishga bo'lgan urinishlar. Soliq kodeksi 261-moddasida eksport qilingan tovarlar uchun imtièz qo'llashni va tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksporti faktini tasdiqlovchi hujjat sifatida tovarlar O'zbekiston Respublikasidan olib chiqilganligini angaltuvchi belgisi tushirilgan bojxona yuk deklatsiyasi asos qilib ko'rsatilganligi. Ya'ni O'zbekiston hududidan xorijiy davlatga olib chiqilgan tovarlar, ularni sotishdan tushgan valyuta mablag'lari O'zbekiston banklariga o'tkazilmagan bo'lsa ham, eksport miqdori sifatida inobatga olinmoqda.

2. O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tgan tadbikorlar xorijiy davlatlarga ko'proq tovar eksport qilganligi uchun soliq to'lovlarini to'lamaslik èki kamroq to'lash uchun eksport qilaётган tovarlarini narxini amaldagi real narxdan oshirib, bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazib, chet davlatlarga olib chiqmoqda. Eksport hujjatlarida oshirilgan tovar narxi tadbirkor uchun ko'p tovar eksport qilinganligini bildiradi va buning uchun tadbikor soliqlarni kamroq to'lash imkoniyatiga ega bo'ladi. Oqibatda oshirilgan narxda eksport qilingan tovarlar xorijiy davlatlar hududida haqiqiy o'zining arzon narxida sotiladi va shuncha miqdordagi xorijiy valyuta O'zbekiston Respublikasiga olib kiriladi. Hujjatlarda ko'rsatilgan to'lanmay qolgan xorijiy valyuta to'lovlarini tadbirkorlar O'zbekistondagi o'z hisoblarida mavjud bo'lgan valyuta pul mablag'lari bilan kam-kam to'lab qoplash choralarini ko'rmoqda. Bunda tadbirkor o'zining xorijiy valyutadagi pul mablag'ini go'ёki chet davlatlardan olib kirganday qilib ko'rsatish uchun yo'lovchi bojxona deklaratsiyasini soxtalashtirib, bank kassasiga naqd xorijiy valyuta pul mablag'larini to'lashga harakat qilmoqda.

3. O'zbekiston Respublikasiga investitsiya mablag'larini kiritgan xorijiy davlatlarning tadbirkorlari uchun O'zbekistonda soliq to'lovlaridan ozod qilish bo'yicha beriladigan imtièzlardan foydalanishga bo'lgan urinishlar.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari bilan ham xorijdan investitsiya kiritganlik uchun soliq to'lovlaridan ozod qilish bo'yicha imtièzlar berilishi belgilangan. Shu sababli xorijiy davlatlarning tadbirkorlari èki fuqarolari uchun yaratilgan imtièzlardan foydalanish uchun O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tgan tadbirkorlarning ayrimlari o'z tovarlarini xorijiy davlatlarga eksport qilib, undan tushgan valyuta pul mablag'larini xorijiy davlat tadbirkorlari èki fuqarolari nomidan O'zbekiston Respublikasiga investitsiya sifatida olib kirmoqda hamda xorijiy davlat tadbirkorlari tomonidan O'zbekistonga kiritilgan investitsiya pul mablag'i uchun soliq to'lovlaridan ozod qilish bo'yicha berilgan imtièzlardan foydalanmoqda.

4. Tadbirkorlar tomonidan tovarlarning narxini sun'iy ravishda oshirib ko'rsatish orqali eksport qilishi, bojxona hujjatlarini qalbakilashtirib, eksport qilingan tovarlarni sotishdan tushadigan valyuta mablag'larini O'zbekistonga olib kirmaslikka urinishlari natijasida, soliq to'lovlaridan berilgan imtièzlardan qonunga xi洛f ravishda foydalanishga, "èlg'on eksport"ning vujudga kelishiga, eksport qilinaётган tovarlarning bojxona statistikasi ma'lumotlari noto'g'ri shakllanishiga, chet davlatlardan valyuta mablag'larining O'zbekiston banklariga kelib tushmaslik xavfini yuzaga keltirmoqda.

Bizning fikrimizcha, kelgusida tovarlar eksporti bilan bog'liq noqonuniy valyuta operatsiyalarini oldini olish uchun tadbirkorlar tomonidan eksport qilingan tovarlar uchun xorijiy davlatlardan O'zbekiston banklariga o'tkazilgan valyuta tushumlarining miqdoriga asosan, eksport hajmini aniqlashni yo'lga qo'yish va shu tartib asosida eksport operatsiyalariga oid statistik ma'lumotlarni shakllantirish hamda valyuta tushumining miqdoriga tayanib, tadbirkorlarga kelgusi soliqlardan imtièz qo'llash chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylaymiz. Bu esa Soliq imtièzlarini haqiqatda eksport qilingan tovarlar uchun qo'llanilishi soxta eksportning hajmining kamayishiga va debitor qarzdorlikni kamaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, tadbirkorlar tomonidan qalbaki yo'lovchi bojxona deklaratsiyalari va bojxonaga oid boshqa qalbaki hujjatlar asosida bank kassalariga naqd xorijiy valyuta pul mablag'larini to'lanishini oldini olish maqsadida bojxona organlari bilan tijorat banklari o'rtasida ma'lumotlar almashinuvini ta'minlovchi elektron dasturni amaliётga joriy qilish xam maqsadga muvofiqdir. Markaziy bank va bojxona qo'miasi o'rtasida tovarlarning eksporti bilan bog'liq noqonuniy valyuta operatsiyalarini oldini olishga qaratilgan hamkorlikdagi chora-tadbirlar rejasidagi ishlab chiqib, ushbu chora-tadbirlar rejasiga binoan, soxta yo'lovchi bojxona deklaratsiyasi va bojxonaga oid boshqa qalbaki hujjatlar asosida bank kassasiga naqd xorijiy valyuta pul mablag'ini topshirish uchun murojaat qilgan tadbirkor aniqlanganda, tijorat banklari tomonidan bojxona organlariga darhol xabar berish tizimini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq.

Eksport-import jaraёнida soliq nazoratiga ta'sir qiluvchi omillar ma'lum ma'noda eksport-import operatsiyalari amaliёti yanada soddalashtirishni o'z ichiga oladi.

Mamlakatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish, eksport salohiyatini kuchaytirish, investitsiyalarni jalg qilish va uning jozibadorligini yanada oshirish va bojxona faoliyatini yanada takomillashtirish yuzasidan chora-tadbirlar qo'llanilib kelinmoqda.

Eksport-import faoliyatida soliq nazoratiga ta'sir qursatuvchi omillar natijasida bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiètini barqarorlashtirishda, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishda hamda ularni tashqi savdo faoliyati uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratib bermoqda.

Tashqi savdo faoliyatida soliq nazoratiga ta'sir qiluvchi omillar ma'lum ma'noda eksport-import operatsiyalari amalièti yanada soddalashtirishni o'z ichiga oladi. Jumladan joriy qilingan «Yagona darcha» bojxona axborot tizimi faoliyatida olib borilaètgan faoliyatlar ham tashqi savdo faoliyatini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar

Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiètini barqarorlashtirish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish hamda ularni eksport qilish uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratilmoqda va bu o'z samarasini bermoqda.

Mamlakatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish, eksport salohiyatini kuchaytirish, investitsiyalarni jalg qilish va uning jozibadorligini yanada oshirish va bojxona faoliyatini yanada takomillashtirish yuzasidan chora-tadbirlar qo'llanilib kelinmoqda.

Fikrimizcha, mazkur chora-tadbirlarning amaliètga joriy etilishi quyidagi natijalarga olib keladi:

1. Tadbirkorlik sub'ektlariga mahsulot eksporti uchun berilgan soliqlar bo'yicha imtièzlardan g'ayriqonuniy tarzda foydalanishiga yo'l qo'yilmaydi;
2. Mamlakatmiz iqtisodiètidagi valyuta resurslarining xorijiy davlatlarga chiqib ketishi, so'ngra xorijiy davlat fuqarolari va tadbirkorlik sub'ektlari nomidan qayta O'zbekistonga olib kirish bilan bog'liq noqonuniy valyuta operatsiyalarining oldi olinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ortiqov Ulug'bek Akrombek o'g', Muzaffarov Muhammadjon Maxmud o'g'li, Kamolov Maqsudjon Murodullo o'gli. Davlat xaridlarini tashkil etishda korrupsiyaga qarshi kurash. Journal of Universal Science Research, 2023/9/22

2. Samadov Ortiq, Muzaffarov Mukhammadjon. Analysis of the Participation of the Republic of Uzbekistan in the Processes of International Economic Integration. Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 2023/5/13

3. Muhammadjon Muzaffarov. Davlat xaridlarini tashkil etish shakllarining o'ziga xos xususiyatlari. Science and Education, 2022/12/31

4. Muzaffarov Muhammadjon Maxmud o'g'li O'roqov Uchqun Yunusovich, Moyliyev Murod Baxtiyorovich. Mamlakat investitsiya jozibadorligini oshirish orqali. Science and education, 2022

5. Muhammadjon Maxmud o'g'li Muzaffarov

6. Muhammadjon Maxmud o'g'li Muzaffarov. BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH ORQALI KORXONA RESURSLARINI BOSHQARISH. Science and education, 2023/10/30

7. Muzaffarov Muhammadjon Maxmud o'g'li, Ortiqov Ulug'bek Akrombek o'g, Mavlonov Doston Mavlon o'g'li INVESTITSIYALARNI JALB QILISHDA QULAY INVESTITSIYA MUHITINING O'RNI VA AHAMIYATI. World of Science, 2023/10/4

8. Muzaffarov Muhammadjon Maxmud o'g'li, Ortiqov Ulug'bek Akrombek o'g, Mavlonov Doston Mavlon o'g'li. БЮДЖЕТ СОЛИҚ СИЁСАТИ ОРҚАЛИ МАМЛАКАТ ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АҲАМИЯТИ. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 2023/10/1

9. Mukhammadjon Muzaffarov. Projects formed on the basis of public opinion and financing them in Uzbekistan. World of Scientific news in Science Journal, 2023

10. Ortiqov Ulug'bek Akrombek o'g, O'sarov Javohir Bahodir o'g. AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING KORPORATIV MOLIYAVIY STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 2023/6/14

11. УА Артиков, НЕ Джиянова. ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ СВОБОДНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОН В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН. ББК У. Ят31+ Ч34Я431 А 43

12. Ulug'bek Ortiqov, Ismoil Ismoilov, RAQAMLI IQTISODIYOTNI JORIY ETISH SHAROITIDA KORXONALAR MOLIYAVIY HOLATINI TAHLIL ETISH. Наука и инновация, 2023/5/4

13. Ulug'bek Ortiqov, Yulduz Nasimova. RISKNI BARATARAF ETISHDA B2B BIZNES MODELINI QO 'LLASH MEXANIZMLARI. Наука и инновация, 2023/5/7

14. Улуғбек Ортиқов, Суннат Эсанбеков. КОРПОРАТИВ БОШҚАРУВ ТИЗИМИНИ ЎЗБЕКИСТОНДА ҚЎЛЛАШ ИСТИҚБОЛЛАРИ. Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education, 2023/5/7

15. Исройлова Мухаббат Рустамжон кизи Факторы развития реального сектора экономики и роль инвестиций в него. Golden Brain, 2023/12/25